

PROSPECTS FOR IMPROVING THE PREVENTION OF CYBER FRAUD OFFENCES

Sohiba Hamidova

Master's student at Tashkent State University of Law

E-mail: sohibahamidova48@gmail.com Tel: +998886115252

Annotation

This thesis analyses the prospects for improving the prevention of cyber fraud offences. The research employs systemic, statistical, and comparative-legal methods. The prevention of cyber fraud is substantiated across three directions: technical and organisational measures, raising the population's digital literacy (victimological prevention), and cooperation between law enforcement bodies and the private sector. It is argued that punitive measures alone are insufficient and that a prevention system yields high effectiveness only when reinforced by an independent criminal-law norm. Based on the experience of foreign countries, practical proposals for Uzbekistan are developed.

Keywords

cyber fraud, prevention, victimological prevention, digital literacy, financial institutions, multi-factor authentication.

KIBERFIRIBGARLIK JINOYATLARINING PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Hamidova Sohiba Sohib qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

G-mail: sohibahamidova48@gmail.com

Tel: +998886115252

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi kiberfiribgarlik jinoyatlarining profilaktikasini takomillashtirish istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqotda tizimli, statistik va qiyosiy-

huquqiy usullardan foydalanilgan. Kiberfiribgarlik profilaktikasi uch yoʻnalish — texnik-tashkiliy choralar, aholining raqamli savodxonligini oshirish (viktimologik profilaktika) hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va xususiy sektor oʻrtasidagi hamkorlik — boʻyicha asoslangan. Jazo choralariining oʻzi yetarli emasligi, profilaktika tizimi mustaqil jinoiy-huquqiy norma bilan mustahkamlangandagina yuqori samara berishi dalillangan. Xorijiy davlatlar tajribasi asosida Oʻzbekiston uchun amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit soʻzlar: kiberfiribgarlik, profilaktika, viktimologik profilaktika, raqamli savodxonlik, moliyaviy institutlar, koʻp bosqichli autentifikatsiya.

Insoniyat sivilizatsiyasining bugungi taraqqiyot bosqichi raqamli texnologiyalar, sunʼiy intellekt, blokcheyn tizimlari va global tarmoqning jamiyat hayotining barcha jabhalariga shiddat bilan kirib borishi bilan tavsiflanadi. Raqamlashtirish jarayonlari iqtisodiy munosabatlarni yengillashtirish, bank-moliya operatsiyalarini tezlashtirish va masofaviy xizmatlar koʻlamini kengaytirish barobarida, jinoyatchilikning ham transformatsiyalashuviga, yaʼni anʼanaviy jinoyatlarning virtual makonga koʻchishiga zamin yaratdi. Bunday salbiy transformatsiyaning eng yaqqol va ommaviy koʻrinishi - kiberfiribgarlikdir. Kiberfiribgarlik bugungi kunda nafaqat shaxsning mulkiy huquqlariga, balki davlatning iqtisodiy barqarorligiga, bank-moliya tizimining xavfsizligiga va eng muhimi, fuqarolarning raqamli ekotizimga boʻlgan ishonchiga jiddiy tahdid solayotgan global muammodir. Oʻzbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat tizimini rivojlantirish sharoitida plastik kartalardan pul mablagʻlarini gʻayriqonuniy ravishda yechib olish, fishing havolalar orqali shaxsiy maʼlumotlarni qoʻlga kiritish, soxta investitsiya loyihalari (moliyaviy piramidalar) va ijtimoiy muhandislik usullari bilan fuqarolarni chalgʻitish holatlari keskin koʻpaydi. Kiberfiribgarlikning tabiati uning latentlik (yashirinlik) darajasi yuqoriligi, transmilliy xarakteri va jinoyat sodir etish usullarining doimiy ravishda yangilanib borishi bilan

ajralib turadi. Binobarin, ushbu jinoyat sodir etilgandan keyin uni fosh etish, jinoyatchini aniqlash va eng asosiysi, yetkazilgan moddiy zararni qoplash anchayin murakkab kechadi.

Bundan kelib chiqadigan fundamental xulosa shundan iboratki, kiberfiribgarlikka qarshi kurashishda faqatgina jinoiy-huquqiy choralarga va jinoyat sodir etilgandan keyingi tergov harakatlariga tayanib qolish kutilgan samarani bermaydi. Strategik urg‘u jinoyatning oqibatlarini bilan kurashishga emas, balki uning barvaqt oldini olishga, ya’ni *profilaktika tizimini takomillashtirishga* qaratilishi shart. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Kiberxavfsizlik markazining ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda axborot texnologiyalaridan foydalanib 58 800 ta qilmish qayd etilgan bo‘lib, kiberjinoyatlarning umumiy jinoyatchilikdagi ulushi 44 foizdan ortib ketgan va shundan 97,7 foiz kiberjinoyatlar kiberfiribgarlik jinoyatlari sanaladi [1]. Bunday vaziyatda jazo choralari bilan bir qatorda kompleks profilaktika tizimini yo‘lga qo‘yish dolzarb vazifaga aylanadi. Mazkur tezisning maqsadi kiberfiribgarlik profilaktikasini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Huquqshunoslik doktrinasida jinoyatchilikning profilaktikasi deganda, jinoyat sodir etilishining sabablari va ularga imkon beradigan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish hamda aholining huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan davlat va jamiyat chora-tadbirlari tizimi tushuniladi. Kiberfiribgarlik profilaktikasi uch o‘zaro bog‘liq yo‘nalishda amalga oshiriladi. Birinchi yo‘nalish texnik-tashkiliy choralar bo‘lib, kiberfiribgarlikning aksariyati moliyaviy institutlar (banklar, to‘lov tashkilotlari) tizimlari orqali amalga oshirilgani bois, aynan shu institutlar darajasida ko‘p bosqichli autentifikatsiya, shubhali tranzaksiyalarni sun’iy intellekt va mashinali o‘qitish texnologiyalari yordamida real vaqt rejimida monitoring qilish, mijozni identifikatsiya qilish tartiblarini kuchaytirish hamda shubhali operatsiyalarni vaqtincha bloklash

mexanizmlarini joriy etish profilaktikaning hal qiluvchi bo'g'inidir. Shuningdek, onlayn kredit olishda o'z-o'ziga taqiq qo'yish modeli ham bugungi kunda ko'plab uchrayotgan kiberfiribgarlik usullari orqali qo'lga kiritilgan shaxsga doir ma'lumotlar bilan biri birovning nomiga kredit rasmiylashtirish kabi qonunga xilof qilmishlarining kamayishiga yordam beradi.

Ikkinchi yo'nalish hamda eng muhim yo'nalishlardan - aholining raqamli savodxonligini oshirish va viktimologik profilaktikasi hisoblanadi. Kiberfiribgarlikning eng keng tarqalgan turlari (fishing, ijtimoiy muhandislik) asosida jabrlanuvchini aldash yotgani bois, aholini eng ko'p uchraydigan firibgarlik sxemalari haqida muntazam ogohlantirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda raqamli savodxonlik asoslarini ta'lim tizimiga joriy etish jinoyatning oldini olishning eng samarali vositasidir. Demografik tahlillar shuni ko'rsatadiki, 45 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan odamlar firibgarlik qurboni bo'lish ehtimoli yuqoriroq. Bunga ularning raqamli savodxonlik darajasining pastligi va haddan tashqari ishonuvchanligi sabab bo'lmoqda [2]. Shunday ekan, o'rta va keksa yoshdagi fuqarolar kabi xavf guruhlariga nisbatan aniq yo'naltirilgan profilaktika alohida ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi yo'nalish bu huquqni muhofaza qiluvchi organlar va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik bo'lib, kiberfiribgarlikni tezkor aniqlash va to'xtatish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar, moliyaviy institutlar va aloqa operatorlari o'rtasida real vaqt rejimida axborot almashinuvi tizimini, shuningdek kiberfiribgarlik shikoyatlarini qabul qiluvchi yagona ishonch telefoni va onlayn-portalni yo'lga qo'yish zarur. Bu borada Buyuk Britaniyaning 2026–2029-yillarga mo'ljallangan firibgarlikka qarshi strategiyasi (Fraud Strategy) hamda Singapurning "Smart Nation" doirasidagi profilaktika modeli, jumladan shubhali raqamlar va resurslarni bloklaydigan "Scamshield" mobil ilovasi kabi mexanizmlari ibratli tajriba sifatida e'tirof etish mumkin.

Shu bilan birga, profilaktik chora-tadbirlar tizimining to‘laqonli ishlashi mazkur turdagi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikning aniq, asoslangan va adolatli huquqiy mexanizmi bilan mustahkamlangan taqdirdagina yuqori samara beradi. Kiberfiribgarlik uchun javobgarlikni mustaqil jinoyat tarkibi sifatida belgilash nafaqat jazolash, balki umumiy va maxsus ogohlantirish funksiyasini ham bajarib, profilaktika tizimining huquqiy poydevorini tashkil etadi.

Olib borilgan tahlil quyidagi xulosalarga olib keldi:

birinchidan, kiberfiribgarlik profilaktikasi aniq va adolatli jazo choralari belgilash bilan birga, texnik-tashkiliy, ma’rifiy va tashkiliy-huquqiy choralarning kompleks majmuini tashkillashtirish orqali samarali bo‘ladi;

ikkinchidan, moliyaviy institutlar va aloqa operatorlarining kiberfiribgarlik shubhasi bo‘lgan tranzaksiya va aloqalarni aniqlash, bloklash hamda xabar berish bo‘yicha majburiyatlarini qonun darajasida belgilash maqsadga muvofiq;

uchinchidan, aholining raqamli savodxonligini oshirish bo‘yicha ta’lim dasturlarini tashkil etish va kiberfiribgarlik tuzoqlariga tushishi yuqori ehtimolli jabrlanuvchilar toifasiga maqsadli viktimologik profilaktikani yo‘naltirish kiberfiribgarlikning oldini olishning eng samarali vositalaridan biridir;

to‘rtinchidan, profilaktika tizimi kiberfiribgarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi mustaqil jinoiy-huquqiy norma bilan mustahkamlangandagina to‘laqonli samara beradi.

Xulosa qilib aytganda, kiberfiribgarlik jinoyatlarining profilaktikasini takomillashtirish texnik, ma’rifiy va huquqiy choralarning uyg‘un majmuini hamda davlat organlari bilan xususiy sektorning birgalikdagi sa’y-harakatlarini taqozo etadi. Mazkur kompleks yondashuv kibermakonni xavfsiz raqamli muhitga aylantirishning muhim shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Crime rate in Uzbekistan: MIA reports nearly 200 offenses per 100,000 people for 2024 // Kun.uz. – 2025-yil 27-fevral [Elektron resurs].URL: <https://kun.uz/en/news/2025/02/27/crime-rate-in-uzbekistan-mia-reports-nearly-200-offenses-per-100000-people-for-2024>.

2. Zamin.uz internet nashrining maqolasi // <https://zamin.uz/uz/ozbekiston/166748/html>.

3. Sabirbayeva A.B. Kiberjinoyatlarga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning zarurati. – Toshkent, 2023.

4. Button M., Cross C. Cyber Frauds, Scams and their Victims. – London: Routledge, 2017.

5. Isomiddinov S.Gʻ. Firibgarlik jinoyatlarining viktimologik profilaktikasini takomillashtirish. Yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025. – 10–12 b.

6. Ochilov H.R. Oʻzgarlar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-taroj qilganlik uchun javobgarlik. Yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2017. – 19–22 b.

7. Qudratov B.(2025) Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik jinoyatlarini tergov qilishga doir xorijiy tajriba va xalqaro standartlar // “Oʻzbekiston tergovchisi” ilmiy-amaliy yuridik jurnali.-№ 4 (11). – 35 b.

8. Rustambayev M.X.(2018) Oʻzbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 1-tom. Jinoyat haqida taʼlimot. Darslik. 2-nashr, toʻldirilgan va qayta ishlangan. - Toshkent: Oʻzbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik institut, 170 b.